

Raximova Saida Durdiyevna

Toshkent davlat agrar universiteti "Gumanitar fanlar va huquq" kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada bola tarbiyasi hamda uning din va madaniyatga ta'siri haqidagi so'zboradi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy dunyoqarash, bolalar, farzand, ma'naviyat, tarbiya, oila, barkamol avlod.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Ma'naviy-ruhiy sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni judayam katta.

Oila o'zining tarixiy taraqqiyoti davrida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyatning o'zaro aloqalari va ijtimoiy vazifalarining tubdan o'zgarganligidir. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o'zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o'zaro aloqa shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma'naviy yo'nalishidagi o'zgarishlari oila faoliyatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar oila qurish, mehr-muhabbat, o'zaro do'stlik va farzand ko'rishni rejalashtirishda o'z ifodasini topmoqda. Davlatimiz oilalarni o'zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma'naviy yordam berishga majbur. Oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg'unligini ta'minlashdan manfaatdordir. Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko'paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma'lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyatda bo'lmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an'anaviy qismi sifatida o'rganilmoqda. Ikkinchchi tomondan esa oila sotsiologiya va filologiya yo'nalishida ham tadqiq etilmoqda. Matbuotda e'lon qilingan maqolalarda mazkur sohaga qiziqqan olimlarning oilaviy tarbiya xususiyatlariga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashayotganliklari ma'lum bo'lmoqda.

Avvalambor bola tarbiyasida oila mustaxkamligi birinchi o'rinda turadi. Onamiz bizni odobli, tartib-intizomli, mehribon, ozodalikka rioya qiladigan, kattalar va kichiklarga hurmatda bo'ladigan qilib tarbiyalasa, otamiz esa bizni masuliyatli, qatiyatli, kuchli, o'ziga ishonadigan, sabr-bardoshli qilib tarbiyalaydi. Bola boshqa muhitga tushib qolganida kattalarga hurmati, dunyoqarashi, har qanday vaziyatda o'zini tuta ola bilishi oilada ko'rgan

tarbiyasini yuzaga keltirib chiqaradi. Albatta bola tarbiyasining shakillanishida ota – ona asosiy rolda bo'lishi lozim. Bolaning hayotdagi eng birinchi ustozi bu uning ota-onasi, oilasi bo'ladi. Oiladagi muhit qanchalik yaxshi bo'lsa bolaning xulq-atvori, boshqalar oldida o'zini tutishi, odobi yaxshi shakllanib boradi.

Hozirgi globallashuv jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida vatanga, oila a'zolariga, qon-qarindoshlariga mehr-muhabbat tuyg'ularni singdirish muhim ahmiyatga ega. Chunki axborotlashuv davridagi turli xil ma'lumotlarning tinimsiz ravishda kirib kelishi, bola ongiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bolada egoizm va materializm kabi salbiy illatlarni shakllantirmoqda. Bu axborotlar ichida dinni niqob qilib aqidaga zid g'oyalarni singdirayotganlar ham talaygina topiladi. Xo'sh, o'zo'zidan savol tug'iladi bolani bunday yod g'oyalardan nima yoki kimlar saqlab qola oladi. Albatta oila va undagi to'g'ri yo'naltirilgan muhit bolani bunday chalkash noaniq narsalardan saqlaydi. Tarbiya uslubining to'g'ri tanlanganligi, bola bilan munatzam muloqot qilish bolaning ongi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalqi azal-azaldan o'z milliy qadriyatları va o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaga tayanib kelgan. Oilaning mustahkamligi, oilada ma'naviy muhitning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, "Oila -kichik vatan, oila tinch, baxtli bo'lsa – vatan tinch bo'ladir". Shu sababli ham bizning mamlakatimizda oila – muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. Bosh Qomusimizning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deb ta'kidlangan. Shundan anglashimiz mumkinki, oilaning mustahkamligi, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishini ta'minlash davlatimizning asosiy hujjatida ham o'z aksini topgan. Oila murg'ak vujud qalbiga eng pokiza tuyg'ularning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga kelgan farzand aynan oila bag'rida bir qator dastlabki hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Darhaqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o'zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirkak bo'la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog'lom oila muhiti muhim o'rinni kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, oila azalazaldan farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi maskan bo'lib kelgan.

Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit bir birlikni tashkil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ota-onalar va jamiyat a'zolarining mehnat faoliyatları xarakteri, er va ayolning teng huquqligi, o'zaro hurmat, farzandlarni e'zozlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e'tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o'sayotganligi oilalarga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda. Bolalar tarbiyasiga birinchi navbatda ota va onaning o'zaro munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Bizning jamiyatimizda er va ayollarning teng huquqligi ta'minlangan bo'lsa-da, lekin biologik tenglik yo'qligini inkor eta olmaymiz. Shu sababli onalar bolalari tarbiyasi uchun ko'proq mehnat qilishlarini taqozo etadi. Bundan tashqari, ayollar oilada erkaklarga nisbatan ko'proq vaqtini uy ishlariga sarflaydi. Sotsiologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, hatto dam

olish kunlari ham ayollar uy ishlari uchun to'qqiz soatdan o'n bir soatgacha vaqt ajratishadi. Ishlovchi ayol bolalar tarbiyasi uchun juda oz vaqt ajratishga majbur bo'ladi. Ertalab, ishga jo'nashdan oldin bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, yasli yoki bog'chaga olib boradi, maktabga jo'natadi. Katta yoshdag'i farzandlari o'zlarini eplaydi. Kunning ikkinchi yarmida ishdan qaytgach, ayolning ikkinchi - uy uchun bo'lgan ish faoliyati boshlanadi, ya'ni bolalarining uy vazifalarini bajarishlarini nazorat qilish, kechki ovqat tayyorlash va hokazo.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat-e'tibor bilan qaraydigan, qayg'ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko'ruvchi, talablarida sabrli, bolalariga doimo ma'naviy ko'maklashuvchi otaonalargina haqiqiy ma'noda namuna bo'la oladilar. Ularning obro'si halol mehnatlari bilan do'stona munosabatlari, kerak bo'lsa, hatto ayblari uchun kechirim so'rashlari bilan mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O.To'rayeva «Oylaviy hayot etikasi va psixologiyasi» T-1998y.
2. M.Quramov. Oila – milliy tarbiya o'chog'i. Xalq ta'limi jurnal. T-1999
3. "Baxtiyor oila". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol-nashr. - Toshkent.:2016. -B.339.
4. Davlataliyevna, S. N. (2022). OILADAGI SALBIY MULOQOTNING FARZAND PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 475-478.
5. "Oila psixologiyasi". G'. B. Shoumarov. "sharq"matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.- Toshkent.: 2010. -B.3.